

LUIGI PIRANDELLONING “SEI PERSONAGGI IN CERCA D’AUTORE” ASARIDA IRONIYA VA POLIFONIK NARRATSIYANING TARJIMASI VA ULARGA PRAGMATIK VA FUNKSIONAL YONDASHUV

Otaxonova Munixon Janibek qizi,

O‘zDJTU Tarjimonlik fakulteti,

Italyan tili tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasida o‘qituvchisi

muniskhanotakhanova@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada *Sei personaggi in cerca d'autore* asarida ironiya va polifonik narratsiyaning o‘ziga xos xususiyatlari hamda ularning tarjimada aks ettirilishi tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida qahramonlar nutqi, yashirin ma’no va ko‘p ovozli struktura misollar asosida ko‘rib chiqiladi. Natijada ironiyani va polifonik tuzilmani tarjimada saqlash muhimligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: ironiya, polifonik narratsiya, tarjima, dramatik matn, pragmatika, funksional yondashuv.

Аннотация. В данной статье анализируются особенности иронии и полифонического нарратива в произведении *Sei personaggi in cerca d'autore* и их отражение в переводе. В ходе исследования рассматриваются речь персонажей, скрытые смыслы и многоголосная структура текста. Делается вывод о важности сохранения иронии и полифонии в процессе перевода.

Ключевые слова: ирония, полифония, перевод, драматический текст, прагматика, функциональный подход.

Abstract. This article analyzes the features of irony and polyphonic narration in *Sei personaggi in cerca d'autore* and their representation in translation. The study examines characters' speech, implicit meanings, and the multi-voiced structure of the text through examples. The results highlight the importance of preserving irony and polyphony in translation.

Key words: irony, polyphony, translation, dramatic text, pragmatics, functional approach.

Kirish. Luigi Pirandello XX asr jahon adabiyotida o‘ziga xos o‘rin egallagan dramaturg va yozuvchi bo‘lib, uning ijodi inson shaxsining murakkabligi, haqiqatning nisbiyligi va ijtimoiy rollarning ziddiyatli tabiatini yoritishga qaratilgan. U Nobel Prize in Literature laureati sifatida adabiyot va teatr san’atiga katta hissa qo‘shgan. Pirandello asarlarida an’anaviy dramatik shakllar yangicha talqin qilinib, unda voqelik ko‘p qirrali va subyektiv tarzda ifodalanadi. Shu jihatdan uning dramaturgiyasi zamonaviy adabiy jarayonlarda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

“*Sei personaggi in cerca d'autore*” asari Pirandello ijodining eng yorqin namunalaridan biri bo‘lib, unda metateatr, ya’ni teatr ichida teatr konsepsiyasi orqali badiiy voqelik va real hayot o‘rtasidagi murakkab munosabatlar ochib beriladi. Asarda qahramonlar muallif izlab sahnaga chiqadi va o‘z hikoyalarini aytishga intiladi. Bu jarayonda har bir qahramon o‘z nuqtai nazarini ilgari suradi, natijada yagona haqiqat emas, balki bir nechta qarama-qarshi haqiqatlar mavjudligi namoyon bo‘ladi. Ushbu xususiyat asarning polifonik, ya’ni ko‘p ovozli narrativ tuzilishga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, Pirandello asarlarida uchraydigan ironik ifodalar va polifonik narratsiya tarjima jarayonida murakkab muammolarni yuzaga keltiradi. Ironiya — bu yashirin ma’no, kontekst va kommunikativ

vaziyatga bog'liq holda yuzaga chiqadigan badiiy vosita bo'lib, uni to'g'ri anglash va tarjima qilish tarjimondan yuqori darajadagi lingvistik va pragmatik kompetensiyani talab qiladi. Agar ironiya noto'g'ri talqin qilinsa, asarning umumiy mazmuni va estetik ta'siri sezilarli darajada o'zgarishi mumkin.

Polifonik narratsiya esa har bir qahramonning mustaqil ovozga ega bo'lishi bilan tavsiflanadi. Bu esa tarjimada stilistik differensiyani saqlash, ya'ni har bir obrazning nutqiy xususiyatlarini alohida-alohida ifodalash zaruratini yuzaga keltiradi. Tarjimon matndagi turli ovozlarni bir xil uslubda berib yuborsa, asarning asosiy badiiy xususiyatlaridan biri yo'qolib qoladi. Shu sababli, bunday asarlarni tarjima qilishda nafaqat lingvistik, balki funksional va pragmatik yondashuvlardan foydalanish muhim hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Luigi Pirandello ijodi, xususan Sei personaggi in cerca d'autore asari yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ko'p qirrali bo'lib, ular asosan dramaturgiyaning estetik xususiyatlari, metateatr konsepsiyasi, haqiqat va illuziya o'rtasidagi munosabat hamda polifonik tuzilmani tahlil qilishga qaratilgan. Shu bilan birga, mazkur asarni tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan pragmatik va funksional muammolar ham zamonaviy tarjimashunoslik doirasida alohida e'tibor qozonib bormoqda.

Avvalo, Pirandello ijodini o'rganishda adabiyotshunoslik yo'nalishida muhim natijalarga erishilgan. Tadqiqotchilar uning asarlarida inson shaxsining ko'p qirrali tabiati, subyektiv haqiqat tushunchasi va dramatik shakllarning yangilanishini tahlil qilganlar. Xususan, Pirandello dramaturgiyasida polifoniya elementi muhim o'rin tutishi, ya'ni har bir qahramonning mustaqil ovozga ega ekanligi va bu ovozlarda doimiy ziddiyat mavjudligi ko'rsatib berilgan. Bu esa Mikhail Bakhtin tomonidan ishlab chiqilgan polifoniya nazariyasi bilan hamohangdir. Bakhtin nazariyasiga ko'ra, badiiy matnda turli ovozlarda teng huquqli ravishda mavjud bo'lib, ular yagona muallif pozitsiyasiga bo'ysunmaydi. Ushbu yondashuv Pirandello asarlarini tahlil qilishda samarali metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Ironiya masalasi ham ko'plab tadqiqotchilar tomonidan keng o'rganilgan. Pirandello asarlaridagi ironik ifoda ko'pincha yashirin, kontekstga bog'liq va ko'p qatlamli bo'lib, uni to'g'ri anglash uchun matnning ichki strukturasi chuqur tahlil qilish talab etiladi. Adabiyotshunoslikda ironiyaning bunday murakkab shakllari ko'pincha dramatik ironiyaga yaqinlashadi, bunda tomoshabin yoki o'quvchi qahramondan ko'ra ko'proq ma'lumotga ega bo'ladi yoki aksincha, qahramonning o'zi ironik vaziyatni yaratadi.

Tarjimashunoslik nuqtai nazaridan esa ushbu masalalar yanada murakkablashadi. Xorijiy olimlardan Eugene Nida tomonidan ilgari surilgan dinamik ekvivalentlik nazariyasi tarjimada ma'no va ta'sirni saqlash zarurligini ta'kidlaydi. Bu yondashuvga ko'ra, tarjima faqat shakliy moslikni emas, balki matnning qabul qiluvchiga ko'rsatadigan ta'sirini ham hisobga olishi kerak. Pirandello asarlaridagi ironiyani tarjima qilishda aynan

shu jihat muhim, chunki ironiyaning ta'siri ko'pincha kontekst va madaniy bilimlarga bog'liq bo'ladi.

Funksional yondashuv doirasida esa Hans Vermeer tomonidan ishlab chiqilgan Skopos nazariyasi alohida o'rin tutadi. Ushbu nazariyaga ko'ra, tarjima jarayonida asosiy e'tibor tarjimaning maqsadiga qaratiladi. Ya'ni tarjima qaysi auditoriya uchun va qanday maqsadda amalga oshirilayotgan bo'lsa, strategiya ham shunga mos ravishda tanlanadi. Pirandello asarini tarjima qilishda bu yondashuv ironik va polifonik elementlarni qabul qiluvchi auditoriya darajasiga moslashtirish imkonini beradi.

O'zbek tarjimashunosligida ham so'nggi yillarda badiiy tarjima, ayniqsa dramatik matnlar tarjimasi bo'yicha muhim tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. O'zbek olimlaridan tarjima nazariyasiga oid ishlarda tarjimaning milliy-madaniy xususiyatlari, ekvivalentlik muammosi, stilistik moslik va pragmatik omillar keng yoritilgan. Xususan, o'zbek tilida yaratilgan ilmiy adabiyotlarda badiiy matn tarjimasida obrazlilik, ekspressivlik va muallif uslubini saqlash masalalari muhim deb qaraladi. Bu jihatlar Pirandello asarini tarjima qilishda ham dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda "Sei personaggi in cerca d'autore" asari asosida bir nechta tarjima metodlaridan foydalanildi. Avvalo, qiyosiy (komparativ) metod orqali original matn va tarjima variantlari solishtirildi. Pragmatik yondashuv yordamida matnning konteksti va kommunikativ maqsadi hisobga olindi. Funksional metod orqali tarjimaning o'quvchiga ta'siri va qabul qilinishi tahlil qilindi. Shuningdek, stilistik metod asosida qahramonlar nutqi va polifonik tuzilma saqlanishiga e'tibor qaratildi. Ushbu metodlar uyg'un holda qo'llanib, ironik ifodalar va ko'p ovozli narratsiyaning tarjimada imkon qadar to'liq aks ettirilishi maqsad qilindi.

Tahlil va natijalar. Avvalo, ironiya tushunchasiga qisqacha to'xtalib o'tish zarur. Ironiya - bu nutqda aytilgan fikrning yuzaki ma'nosi bilan asl (yashirin) ma'nosi o'rtasidagi nomuvofiqlikdir. Ya'ni so'zlar bir narsani bildiradi, lekin aslida boshqa ma'no anglatadi. Badiiy matnda ironiya ko'pincha kinoya, qarama-qarshilik yoki yashirin tanqid shaklida namoyon bo'ladi. "Sei personaggi in cerca d'autore" asarida esa ironiya markaziy badiiy vositalardan biri bo'lib, u voqelikning nisbiyligini ochib berishga xizmat qiladi.

Ushbu asar o'zining murakkab badiiy tuzilishi, ayniqsa ironiyaga boy ifodalari va polifonik narratsiyasi bilan ajralib turadi. Asar syujeti oddiy ko'rinsa-da, aslida juda murakkab: sahnada teatr trupпасi mashq qilayotgan paytda to'satdan "muallif izlayotgan" olti qahramon paydo bo'ladi. Ular o'z hayotiy fojealarini sahnaga qo'yishni talab qiladi. Shu yerning o'zida asarning asosiy ironiyasi yuzaga chiqadi: "sun'iy" deb hisoblangan qahramonlar o'zlarini "haqiqiy", aktyorlarni esa "soxta" deb biladi. Masalan, Ota (Padre) shunday deydi:

"Noi siamo più veri di voi!" ("Biz sizlardan ko'ra haqiqiyroqmiz!") Bu jumlada kuchli ironik qarama-qarshilik mavjud. Chunki odatda aktyorlar real insonlar, qahramonlar esa uydirma hisoblanadi. Ammo Pirandello bu tushunchani teskarisiga aylantiradi.

Tarjimada bu ironiyani saqlash uchun “haqiqiyroq” (comparativ shakl)ni albatta berish muhim, aks holda ma’no yo‘qoladi.

Yana bir muhim misol — O‘gay qiz (Figliastra) nutqida ko‘rinadi. U sahnadagi vaziyatni keskin kinoya bilan ifodalaydi:

“Ah! Che commedia! Che commedia!” (“Voy! Qanday kulgili!”)

Bu yerda “commedia” so‘zi ikki ma’noda ishlatilgan: bir tomondan sahnadagi spektakl, ikkinchi tomondan esa hayotning o‘zi masxara ekanligi nazarda tutiladi. Bu leksik ironiya bo‘lib, tarjimada “komediya” so‘zini aynan saqlash orqali ikki qatlamli ma’noni yetkazish mumkin.

Direktor (Capocomico) esa vaziyatni tushunishga urinib, shunday deydi:

“Ma qui siamo sul serio o stiamo scherzando?” (“Biz bu yerda jiddiyimizmi yoki hazillashyapimizmi?”) Bu savolda ham ironik noaniqlik mavjud: sahna va real hayot o‘rtasidagi chegaralar yo‘qolib ketgan. Tarjimada bu ikkiyuzlamalikni saqlash muhim, aks holda dramatik effekt kamayadi.

Asarda polifonik narratsiya ayniqsa qahramonlar nutqida yaqqol ko‘rinadi. Har bir obraz o‘ziga xos til va uslubga ega. Masalan: Ota (Padre) — falsafiy va murakkab gapiradi: *“Ognuno di noi ha dentro un mondo di cose...”* (Har birimiz ichimizda butun bir olamni olib yuramiz)

O‘gay qiz (Figliastra) — keskin, hissiy va kinoyali nutq ishlatadi:

“Lui parla, parla... ma non dice niente!” (U gapiradi, gapiradi... lekin hech narsa demaydi!)

Ona (Madre) — qisqa, iztirobli va sokin ohangda gapiradi:

“Io non posso più...” (Men endi chiday olmayman...)

Bu misollar shuni ko‘rsatadiki, har bir qahramonning nutqi uning psixologik holatini aks ettiradi. Tarjimada bu farqlarni saqlash juda muhim, aks holda polifonik tuzilma yo‘qoladi.

Yana bir muhim ironik vaziyat — qahramonlar o‘z fojealarini aktyorlar orqali sahnalashtirishga uringan paytda yuzaga keladi. O‘gay qiz aktyorning uni “to‘g‘ri” o‘ynay olmayotganidan norozi bo‘lib shunday deydi: *“Ma no! Non è così! Non sono io!”* (“Yo‘q! Bu unday emas! Bu men emasman!”)

Yana bir kuchli ironik epizod — Direktor (Capocomico) va qahramonlar o‘rtasidagi ziddiyatda ko‘rinadi. Direktor sahnani boshqarishga urinadi, ammo vaziyatni nazorat qila olmaydi: *“Io sono il capocomico! Qui comando io!”* (“Men direktor-man! Bu yerda men buyruq beraman!”) Lekin aslida u hech narsani boshqara olmaydi. Bu yerda situatsion ironiya yuzaga keladi: o‘zini hukmron deb bilgan shaxs aslida ojiz holatda. Tarjimada bu ironiyani kuchaytirish uchun urg‘u (“men”)ni saqlash muhim.

O‘gay qiz (Figliastra) nutqida esa ironiyaning eng keskin shakllari uchraydi. U o‘z fojeasini deyarli masxara ohangida ifodalaydi: *“La nostra tragedia diventa una vostra farsa!”* (“Bizning fojiamiz sizlar uchun kulgiga aylanadi!”) Bu yerda fojea va kulgi

o'rtasidagi keskin qarama-qarshilik ironiyani yuzaga keltiradi. Tarjimada "fojia" va "kulgiga aylanadi" birliklarini qarama-qarshi tarzda berish muhim.

Polifonik narratsiya ham aynan mana shunday dialoglar orqali ochiladi. Masalan, bir xil voqea turli qahramonlar tomonidan turlicha talqin qilinadi: Ota (Padre) voqeani oqlashga urinadi: "*Non è come sembra...*" (Bu ko'ringandek emas...) O'gay qiz (Figliastro) esa uni fosh qiladi: "*È proprio come sembra!*" (Bu aynan ko'ringandek!) Bu qarama-qarshi nutqlar polifonik strukturaning asosini tashkil etadi. Tarjimada bu zidlikni saqlash juda muhim, aks holda asarning asosiy g'oyasi yo'qoladi. Yana bir muhim epizod aktyorlar qahramonlarni takrorlashga harakat qilganida yuzaga keladi. Qahramonlar o'zlarini noto'g'ri aks ettirilgan deb hisoblaydi. Bu holatda ironiyaning yana bir turi — metateatral ironiya yuzaga chiqadi: teatr ichida yana bir teatr yaratiladi, ammo u ham "haqiqiy" emas. "*Voi non potete rappresentarci!*" ("Sizlar bizni ifodalay olmaysiz!") Bu jumlada qahramonlar aktyorlarning imkoniyatini inkor etadi. Tarjimada "ifodalay olmaysiz" shakli orqali qat'iy inkor berilishi zarur. Asarning oxiriga yaqin voqealar yanada dramatik tus oladi, lekin hatto fojeali lahzalarda ham ironik ohang yo'qolmaydi. Chunki tomoshabin yoki o'quvchi doimo bu haqiqiy voqea yoki yana bir sahnami degan shubha ostida qoladi. Pirandello ironiyani haqiqat va illuziya o'rtasidagi chegarani buzish uchun ishlatadi. Ironiya ko'pincha dialoglar ichida yashirin holda beriladi, polifonik narratsiya esa turli qarashlar to'qnashuvi orqali yuzaga chiqadi. Har bir qahramon o'z "haqiqatini" himoya qiladi va bu haqiqatlar o'zaro mos kelmaydi. Shu bois, tarjimada nafaqat matn mazmuni, balki uning ichki ziddiyatlari, ohangi va yashirin ma'nolari ham imkon qadar to'liq saqlanishi lozim.

Xulosa va takliflar. Ushbu tadqiqotda 'Sei personaggi in cerca d'autore' asarida ironiya va polifonik narratsiyaning tarjimada aks ettirilishi tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, Pirandello asarida ironiya yashirin, ko'p qatlamli va kontekstga bog'liq holda namoyon bo'ladi, polifonik narratsiya esa qahramonlarning mustaqil va qarama-qarshi ovozlari orqali yuzaga chiqadi. Shu sababli, ushbu elementlarni tarjimada to'liq saqlash oddiy so'zma-so'z tarjima bilan emas, balki chuqur tahlil va mos yondashuvni talab qiladi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, tarjimada ironiyani yetkazishda ma'no va ohang uyg'unligi muhim, polifonik tuzilmani saqlashda esa har bir qahramon nutqining individualligini yo'qotmaslik zarur. Aks holda asarning badiiy qiymati va dramatik ta'siri kamayadi. Tadqiqot bo'yicha quydagilar taklif qilinadi:

- Tarjimonlar dramatik matnlarni tarjima qilishda kontekst va yashirin ma'nolarga alohida e'tibor qaratishlari kerak.
- Ironik ifodalarni tarjima qilishda so'zma-so'z yondashuvdan ko'ra ma'no va ta'sirni saqlash muhimroq hisoblanadi.
- Polifonik asarlarni tarjima qilishda qahramonlar nutqidagi stilistik farqlarni saqlash zarur.
- Bunday murakkab asarlarni tarjima qilishdan oldin matn chuqur tahlil qilinishi tavsiya etiladi.

Umuman olganda, Pirandello asarlarini tarjima qilish tarjimondan nafaqat lingvistik bilim, balki badiiy sezgi va tahliliy yondashuvni ham talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://scholar.google.com>
2. <https://www.jstor.org>
3. Eugene Nida. *Toward a Science of Translating*. – Brill, 1964.
4. Komilov, N. *Tarjima nazariyasi asoslari*. – Toshkent: Fan, 2010.
5. Lawrence Venuti. *The Translator's Invisibility*. – London: Routledge, 1995.
6. Luigi Pirandello. *Sei personaggi in cerca d'autore*. – Milano: Mondadori, 1921.
7. Luigi Pirandello. *L'umorismo*. – Milano: Mondadori, 1908.
8. Leech, Geoffrey. *Principles of Pragmatics*. – Longman, 1983.
9. Umberto Eco. *Mouse or Rat? Translation as Negotiation*. – London, 2003.
10. Yo'ldoshev, B. *Badiiy tarjima asoslari*. – Toshkent, 2008.

